«TASDIQLANDI»
«O‘zbekgeofizika» AJ
Kuzatuv kengashining
2023 yil «25» iyuldagi qarori

“O’zbekgeofizika” AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Тошкент-2023 йил

«УТВЕРЖДЕНО»
Наблюдательным советом
АО «Узбекгеофизика»
от «25» июля 2023 года

ПОЛОЖЕНИЕ о порядке проведения конкурсов и отбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика»

Ташкент-2023 год

1-bob. Umumiy qoidalar	Глава 1. Общие положения
Ushbu nizom “O’zbekgeofizika” AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibini belgilaydi.	Настоящее положение определяет порядок проведения конкурса и отбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органаАО «Узбекгеофизика».
1. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:	1. В настоящем положении используются следующие основные понятия:
davlat ishtirokidagi korxonalar – ustav fondi (ustav kapitali) dagi davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyati yoxud ustav fondi (ustav kapitali) dagi davlat ulushi miqdori xo‘jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko‘p bo‘lgan xo‘jalik jamiyati, shuningdek davlat unitar korxonasi;	**Предприятие с государственным участием** - хозяйственное общество, в котором размер доли государства в уставном фонде (уставном капитале) составляет более пятидесяти процентов, либо хозяйственное общество, в котором размер доли государства в уставном фонде (уставном капитале) больше, чем доля каждого другого акционера (участника) хозяйственного общества, а также государственного унитарного предприятия;
ijroiya organining rahbarlik lavozimlari – davlat ishtirokidagi korxonalarning rahbari (boshqaruv raisi, bosh direktori, direktori) va uning o‘rinbosarlari (boshqaruv raisi o‘rinbosarlari, bosh direktor o‘rinbosarlari, direktor o‘rinbosarlari, o‘rinbosarlikka tenglashtirilgan lavozimlar, maslahatchilar yoki davlat ishtirokidagi korxonalar ijroiya organi vakolati doirasida ishga qabul qilinmaydigan lavozimlar);	**руководящие должности исполнительного органа** - руководитель (председатель правления, генеральный директор, директор) государственных предприятий и его заместители (заместители председателя правления, заместители генерального директора, заместители директора, должности, приравненные к заместителю, консультанты или должности не занятых в пределах полномочий исполнительного органа государственных предприятий);
vakolatli davlat organi – davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqlari va funksiyalarini amalga oshiruvchi Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;	**уполномоченный государственный орган** - Агентство по управлению государственными активами, специально уполномоченные государственные органы и органы государственной власти на местах, осуществляющие права и функции собственника (учредителя, акционера, участника) от имени государствав государственных предприятиях;
nomzodlarni saralash va tanlab olish – korporativ axborot yagona portali (openinfo.uz) va (yoki) zarur hollarda tegishli ommaviy axborot vositalarida, Davaktiv agentligi veb-saytida (tanlovni o‘tkazish Davaktiv agentligi tomonidan e’lon qilingan bo‘lsa) va korxonaning veb-	**отбор и выбор кандидатов** - система отбора наиболее подходящих кандидатов по установленным критериям из резерва кандидатов, сформированного на предприятии или в уполномоченном государственном органе, посредством соответствующего объявления в средствах массовой информации (

saytida (tanlovni o‘tkazish korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan e’lon qilingan bo‘lsa) tegishli e’lon berish orqali yoki nomzodlarni qidirib topishga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etgan holda hamda korxonada yoki vakolatli davlat organida shakllantirilgan nomzodlar zaxirasidan belgilangan mezonlar asosida eng maqbul nomzodlarni tanlab olish tizimi;	единого портала корпоративной информации (openinfo.uz) и (или) при необходимости, в соответствующих средствах массовой информации, на сайте агентства по управлению государственными активами (если отбор объявлен агентством по управлению государственными активами) и на сайте компаниина (в случае объявления конкурса наблюдательный совет общества) или с привлечением организаций, специализирующихся на поиске кандидатов;
nomzodlarni saralash va tanlab olish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – komissiya) – davlat ishtirokidagi korxonalar ijroiya organi rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni saralab olish uchun kuzatuv kengashi huzuridagi tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasi a’zolaridan, qo‘mita tashkil qilinmagan hollarda Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolaridan kamida 3 nafar va ko‘pi bilan 7 nafardan oshmagan toq tarkibdagi malakali xodimlaridan iborat tanlov komissiyasi;	**комиссия по отбору и выбору кандидатов** (далее - комиссия) – комисси, соданная для отбора кандидатов на руководящие должности в исполнительный орган государственных предприятий, состоящая из членов комитета по назначениям и вознаграждениям при наблюдательном совете, а в случаях, когда комитет не создан, - не менее 3 и не более 7 квалифицированных работников нечетного состава членов наблюдательного совета Общества;;
«HeadHunter» tashkilotlari – ish beruvchi nomidan ish beruvchining talablariga to‘liq javob beradigan yuqori malakali va tajribali xodimlarni topish xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilot (firma, korxona va boshqa yuridik shaxslar).	**Организации «HeadHunter»** - организации (фирмы, предприятия и другие юридические лица), оказывающие услуги по поиску высококвалифицированных и опытных работников, полностью отвечающих требованиям работодателя, и выступающие от имени работодателя.
2. Ijroiya organining rahbarlik lavozimlari tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish ijroiya organi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan avval tugatilishi natijasida yuzaga keladigan bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari yoki mavjud bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari uchun amalga oshiriladi.	2. Конкурс осуществляется на освобожденные (вакантные) руководящие должности или имеющиеся свободные (вакантные) руководящие должности, возникающие в результате досрочного прекращения полномочий руководящих должностей. исполнительного органа .
3. Saralash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:	3. Отбор осуществляется по следующим принципам:
shaffoflik – veb-saytda va (yoki) ommaviy axborot vositalarida, shuningdek qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa manbalarda tegishli e’lonlar, bo‘sh o‘rinlar, saralash siyosati, tartiblari, mezonlari va saralash	**прозрачность** - публикация соответствующих объявлений, вакансий, правил отбора, процедур, критериев и результатов процесса отбора на сайте и/илив средствах массовой информации, а

jarayonining natijalari haqida ma'lumotlarni chop etish; **tenglik** – saralashda ishtirok etadigan barcha nomzodlarga bir xil shart-sharoitlar yaratish; **raqobat** – saralash jarayoni ochiq va to'g'ri raqobatga asoslangan bo'lishi; **mustaqillik** – saralash jarayoni har qanday siyosiy va ma'muriy aralashuv yoki boshqa tashqi ta'sirlardan holi va mustaqil amalga oshirish.	также в иных не запрещенных законодательством источниках; **равноправие** - создание одинаковых условий для всех кандидатов, участвующих в процессе отбора; **конкуренция** – процесс отбора должен основываться на открытой и честной конкуренции; **независимость** - независимое осуществление процесса отбора, свободное от какого-либо политического и административного вмешательства или других внешних воздействий.
2-bob. Nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibi va bosqichlari	**Глава 2. Порядок и этапы отбора и выбора кандидатов**
4. Komissiya tarkibi "O'zbekgeofizika" AJ kuzatuv kengashi qarori/buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Bunda, komissiya tarkibiga xalqaro moliya institutlari ekspertlari, konsalting kompaniyalar ilmiy xodimlari va ekspertlari, shuningdek davlat ishtirokidagi korxonalarning foliyat yo'nalishidan kelib chiqib soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.	4. Состав комиссии (Комитета) утверждается решением/приказом наблюдательного совета АО «Узбекгеофизика». При этом в состав комиссии могут быть привлечены эксперты международных финансовых организаций, научные сотрудники и эксперты консалтинговых компаний, а также эксперты отрасли в зависимости от направления деятельности государственных предприятий.
5. Komissiya qarori o'rnatilgan tartibda majlisda ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunda, komissiya majlisini o'tkazish uchun kvorum uning jami a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak. "O'zbekgeofizika" AJning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi komissiyaning ishchi organi hisoblanib komissiyaning barcha hujjatlari mazkur boshqarmada saqlanadi.	5. Решение комиссии оформляется протоколом, который подписывается членами, принявшими участие в заседании в установленном порядке. При этом кворум для проведения заседания комиссии не должен быть менее семидесяти пяти процентов от ее общего состава. Рабочим органом комиссии считается отдел кадров АО «Узбекгеофизика», в котором хранятся предоставленные комиссией документы.
6. Nomzodlarni saralash va tanlab olish jarayoni "O'zbekgeofizika" AJ ijroiya organi rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borish istagida bo'lgan har qanday shaxslar uchun ochiqdir.	6. В процессе отбора и выбора кандидатов могут принимать участие любые лица, желающие работать на руководящих должностях исполнительного органа АО «Узбекгеофизика» .
7. Jinsi, tili, millati, fuqaroligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs saralashda belgilangan tartibda ishtirok etish uchun ariza topshirish huquqiga ega, sud qarorlari bilan mansab lavozimlarni egallashi cheklangan shaxslar bundan mustasno.	7. Независимо от пола, языка, национальности, гражданства и социального положения любое лицо имеет право подать заявление об участии в отборе в установленном порядке, за исключением лиц, которым по решению суда запрещено занимать руководящие должности.
8. Saralash nomzodlar tomonidan taqdim etiladigan, shuningdek	8. Отбор осуществляется на основании информации,

qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.	предоставленной кандидатами, а также полученной из иных источников, не запрещенных законодательством.
9. "O'zbekgeofizika" AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi ushbu nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.	9. Порядок отбора и выбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика» осуществляется в соответствии со схемой, представленной в приложении 1 к настоящему положению .
10. "O'zbekgeofizika" AJ ijroiya organi rahbarlik lavozimlari tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi hamda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Davaktiv agentligini xabardor qilishi shart.	10. Исполнительный орган АО «Узбекгеофизика» обязан информировать Агентство госактивов о произошедших изменениях в руководящих должностях и сведениях об имеющихся вакантных руководящих должностях в течение 2 (двух) рабочих дней со дня внесения этих изменений.
O'zgarishlar sodir bo'lgan sana sifatida ijro organining tarkibini tasdiqlash to'g'risida va/yoki ularning tarkibiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida kuzatuv kengashi majlisi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qarori qabul qilingan sana hisoblanadi.	Датой изменения является дата принятия решения заседания наблюдательного совета, общего собрания акционеров (участников) об утверждении состава исполнительного органа и/или о внесении изменений в их состав.
11. Komissiya nomzodlarga malaka talablarini va lavozim tavsifini belgilagan holda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlarini yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini tasdiqlaydi.	11. Комиссия утверждает перечень вакантных руководящих должностей или перечень руководящих должностей, которые станут вакантными в результате досрочного прекращения полномочий действующих руководящих должностей, с указанием квалификационных требований и должностных обязанностей кандидатов.
12. "O'zbekgeofizika" AJ Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadigan bo'sh rahbarlik lavozimlar yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini korxona veb-saytiga joylashtiradi.	12. Перечень вакантных руководящих должностей или руководящих должностей, которые становятся вакантными в результате досрочного прекращения полномочий действующих руководящих должностей, определенных наблюдательным советом, составляется Отдел кадров АО «Узбекгеофизика», и подлжит размещению на сайте компании.
13. Komissiya nomzodlarni izlash choralarini ko'radi, bunda nomzodlarni izlash quyidagi usullardan birini qo'llagan holda amalga oshiriladi:	13. Комиссия принимает меры по поиску кандидатов, при этом поиск кандидатов будет осуществляться одним из следующих способов:
veb-saytlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lonlar berish;	реклама через сайты и СМИ ;
nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash	путем консультирования, специализирующегося на поиске кандидатов и (или) привлечении специальных организаций -

bilan shug‘ullanuvchi maxsus “HeadHunter” tashkilotlarini jalb etish orqali.	"HeadHunter", осуществляющих поиск и найм высококвалифицированных специалистов и управленческого персонала.
14. Nomzodlar komissiyaga tanlov e’lon qilingan sanadan boshlab e’londa belgilangan talablar doirasida o‘zi haqidagi barcha hujjat va ma’lumotlarni yopiq (maxsus) konvertlarda taqdim etadi. Tanlov shartlari, nomzodlarga qo‘yilgan talablar, nomzodlar tomonidan taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjat va ma’lumotlar ro‘yxati e’londa ko‘rsatilishi lozim.	14. Все документы и сведения о себе кандидаты представляют в комиссию в запечатанных (специальных) конвертах со дня объявления конкурса в рамках требований, указанных в объявлении. В объявлении должны быть указаны условия конкурса, требования к кандидатам, перечень документов и сведений, представляемых кандидатами.
15. Komissiya tomonidan nomzodlarni qidirish yakunlanganidan so‘ng, nomzodlar tomonidan taqdim etilgan o‘zlariga tegishli bo‘lgan hujjat va ma’lumotlar ushbu nizomning 2-ilovasiga muvofiq baholash mezonlari asosida baholanadi. Jamiyat faoliyatidan kelib chiqib, komissiya tomonidan baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritilishi yoki qo‘shimcha mezonlar belgilanishi mumkin. Tanlovda ishtirok etish uchun 1 nafar nomzoddan arizalar kelib tushgan taqdirda, komissiya qaytadan nomzodlarni izlash choralarini ko‘radi. Ketma-ket 3-marta nomzodlarni izlash bo‘yicha tanlov e’lon qilingandan so‘ng, 1 nafardan ortiq nomzoddan arizalar kelib tushmasa, komissiya ariza bergan nomzodni vaqtinchalik saylab turish bo‘yicha tavsiya berishga haqli.	15. После завершения комиссией поиска кандидатов документы и сведения, представленные кандидатами, будут оцениваться на основании критериев оценки согласно приложению 2 настоящего положения. Исходя из деятельности общества, комиссия может вносить изменения в критерии оценки или устанавливать дополнительные критерии. В случае поступления заявок на участие в конкурсе от 1 кандидата комиссия принимает меры по повторному поиску кандидатов. После объявления о поиске кандидатов в 3-й раз подряд, если не поступило ни одного заявления более чем от 1 кандидата, комиссия вправе рекомендовать временное избрание подавшего заявление кандидата.
16. Komissiya tanlov jarayonlarini ikki bosqichda amalga oshirishi mumkin. Birinchi bosqichda komissiya nomzodlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma’lumotlar, shuningdek qo‘shimcha manbaa va o‘rganishlardan olingan ma’lumotlar asosida baholaydi, baholash natijalari va nomzodning arizalari (yopiq konvert) ni ochish jarayonidagi ishtiroki paytidagi qisqa fikrlari, takliflari va rejalaridan kelib chiqib, nomzodlar ichidan suhbat bosqichiga nomzodlar saralab olinadi. Ikkinchi bosqichda komissiya saralab olingan nomzodlar ichidan bitta nomzodni tanlash uchun suhbat o‘tkaziladi.	16. Комиссия может проводить отбор в два этапа. На первом этапе комиссия оценивает кандидатов на основании предоставленных ими документов и сведений, а также сведений, полученных из дополнительных источников и исследований, результатов оценки и заявления кандидата (закрытый конверт), во время участия в процессе открытия на основании их кратких мнений, предложений и планов кандидаты отбираются на этап собеседования. На втором этапе будет проведено собеседование для выбора одного кандидата из числа кандидатов, отобранных комиссией.
17. Baholash natijalariga ko‘ra, komissiya bo‘sh rahbarlik	17. По результатам оценки комиссия составляет шорт-лист на

lavozimlari uchun eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar ichidan saralash asosida qisqa ro‘yxatni (short list) tuzadi. Saralash jarayonida nomzodlarning eng yuqori ball to‘plaganligi, salbiy xulosalar yo‘qligi, tanlov shartlari va nomzodlarga quyilgan talablarga mos kelishi inobatga olinadi.	основе отбора кандидатов с наивысшим баллом на вакантные руководящие должности. При отборе учитываются наивысший балл кандидатов, отсутствие отрицательных заключений, соответствие условиям отбора и требованиям, предъявляемым к кандидатам.
Tuzilgan qisqa ro‘yxat (short list)da har bir bo‘sh rahbarlik lavozimlariga nomzodlar soni 3 kishidan oshmasligi kerak.	Количество кандидатов на каждую вакантную руководящую должность в шорт-листе не должно превышать 3 человек.
18. Tuzilgan qisqa ro‘yxat (short list) asosida komissiya tomonidan nomzodlar bilan suhbat o‘tkaziladi.	18. На основании составленного шорт-листа комиссия проводит собеседование с кандидатами.
Komissiya ishchi organi tomonidan nomzodlar suhbatga suhbat bo‘lib o‘tishi belgilangan kundan kamida bir ish kuni oldin nomzodlarning aloqa raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish yoki elektron pochtasiga xabarnoma (xat) yuborish orqali xabardor qilinadi.	Рабочий орган комиссии уведомляет кандидатов на собеседование не менее чем за один рабочий день до даты проведения собеседования, позвонив по контактным телефонам кандидатов или направив уведомление (письмо) на их электронную почту.
Komissiya tomonidan suhbat davomida ushbu nizomning 3-ilovasiga nomzodning kasbiy bilim va ko‘nikmalari baholanadi.	В ходе собеседования комиссия оценивает профессиональные знания и навыки кандидата по приложению 3 настоящего положения.
Suhbat tomonlar kelishuviga ko‘ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda videokonferensiya aloqasi orqali o‘tkazilishi ham mumkin. Nomzod suhbatdan o‘tishdan bosh tortsa yoki suhbatga kelmasa, u tanlovning keyingi bosqichlarida ishtirok eta olmaydi.	По соглашению сторон разговор также может вестись посредством видеоконференцсвязи с использованием информационных технологий. В случае отказа кандидата от прохождения собеседования или неявки на собеседование он не сможет участвовать в следующих этапах конкурса.
Suhbat natijalaridan kelib chiqib, eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar ro‘yxati (short list)ga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.	По результатам собеседования в шорт-лист кандидатов, набравших наибольшее количество баллов, могут быть внесены соответствующие изменения.
19. Komissiya eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar qisqa ro‘yxati (short list)dan har bir bo‘sh rahbarlik lavozimlariga eng munosib bitta nomzodni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi va tasdiqlash uchun aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo‘lsa kuzatuv kengashiga) kiritadi.	19. Комиссия принимает решение о выборе наиболее подходящей кандидатуры на каждую вакантную руководящую должность из короткого списка кандидатов, набравших наибольшее количество баллов, и выносит его на общее собрание акционеров (при наличии у наблюдательного совета полномочий на его утверждение, наблюдательный совет) для утверждения.
Komissiya tomonidan baholash natijalari va suhbat yakunlari bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi. Zaruratga ko‘ra, baholash natijalari va suhbat yakunlari bo‘yicha alohida bayonnoma	Отчет о результатах оценки и результатах собеседования составляется комиссией. При необходимости может быть составлен отдельный отчет по результатам оценки и результатам

rasmiylashtirilishi ham mumkin. 20. Tanlangan munosib nomzodni tasdiqlash uchun aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo‘lsa kuzatuv kengashiga) kiritilganda vakolatli davlat organini xabardor qilinishi va tegishli ko‘rsatma olinishi shart. 21. “O’zbekgeofizika” AJ vakolatli davlat organidan nomzodlar bo‘yicha ko‘rsatma olgandan so‘ng, qonunchilikda belgilangan muddatda ushbu nomzodlarni ijroiya organining rahbarlik lavzimlariga saylash (tayinlash) bo‘yicha korporativ qarorlar qabul qilinishini tashkillashtiradi. 22. Mazkur nizomda belgilangan muddatda nomzodlardan yoki nomzodlarni izlash bilan shug‘ullanadigan tashkilotlardan yetarlicha takliflar kelib tushmasa, komissiya bu to‘g‘risida ikki ish kuni ichida vakolatli organini xabardor qilishi shart. Ushbu holatda vakolatli davlat organi komissiya tomonidan nomzodlar mazkur nizom talablariga asosan saralab olinguniga qadar mavjud nomzodlar zaxirasidan ma’qul keladigan nomzodlarni mustaqil ravishda tanlab olishi mumkin.	собеседования. 20. Для утверждения выбранной подходящей кандидатуры необходимо уведомить компетентный государственный орган и получить соответствующее указание при его включении в общее собрание акционеров (в случае наблюдательного совета, если орган утверждения находится в наблюдательный совет). 21. АО «Узбекгеофизика» организует принятие корпоративных решений об избрании (назначении) указанных кандидатов на руководящие должности исполнительного органа после получения указаний по кандидатам от компетентного государственного органа. 22. В случае поступления недостаточного количества предложений от кандидатов или организаций, осуществляющих поиск кандидатов, в срок, установленный настоящим положением, комиссия обязана в течение двух рабочих дней сообщить об этом в уполномоченный орган. В этом случае уполномоченный государственный орган вправе самостоятельно осуществлять отбор подходящих кандидатов из числа имеющихся кандидатов до отбора кандидатов комиссией на основании требований настоящего положения.
3-bob. Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar	**Глава 3 . Требования к кандидатам**
23. Quyidagi shaxslar nomzod bo‘la olmaydi: oliy ma’lumoti bo‘lmagan shaxslar; rahbarlik lavozimida kamida ikki yil ish tajribasiga ega bo‘lmagan shaxslar (ushbu muddat komissiya tomonidan davlat ishtirokidagi korxonaning xususiyati va ahamiyatidan kelib chiqib ko‘proq yoki kamroq etib belgilanishi mumkin); ushbu shaxslar aybi bilan litsenziya talablari va shartlari buzilganligi sababli, ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani bekor qilish paytida bunday shaxslar yakka ijroiya organi vazifasini bajarayotgan bo‘lsa yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirsa yoki yuridik shaxs ta’sischilari hisoblansa va bunday litsenziyani bekor qilgandan uch yildan kam vaqt o‘tgan bo‘lsa;	23. Кандидатами не могут быть: лица без высшего образования; лица, не имеющие не менее двух лет стажа работы на руководящей должности (этот срок может быть определен комиссией как больший, так и меньший в зависимости от характера и значимости предприятия с государственным участием); в связи с нарушением лицензионных требований и условий по вине этих лиц, на момент аннулирования лицензии на осуществление указанной деятельности такие лица действуют в качестве единоличного исполнительного органа или входят в состав коллегиального исполнительного органа, либо считаются учредителями юридического лица, и с момента аннулирования такой лицензии прошло менее трех лет ;

iqtisodiyot sohasida yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat sodir etganligi sababli sudlanganlik holati tugallanmagan bo‘lsa, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestriga kiritilgan bo‘lsa; sud hukmiga binoan muayyan lavozimda ishlash yoki muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxs; bunday shaxs bankrot etib topilgan paytda yuridik shaxsning yakka ijroiya organ vazifasini bajargan yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan bo‘lsa va uni bankrot deb topgan paytdan xali ikki yil o‘tmagan bo‘lsa. 24. Vakolatli davlat organi va/yoki komissiya tomonidan korxona faoliyatidan kelib chiqib, qo‘shimcha talablar belgilanishi mumkin.	при непогашении состояния судимости за совершение преступления в сфере экономики или против административного порядка, а также при включении в открытый электронный реестр лиц, признанных виновными в совершении преступлений, связанных с коррупцией; лицо, лишенное права работать на определенной должности или заниматься определенной деятельностью по приговору суда; если такое лицо выполняло функции единоличного исполнительного органа юридического лица или входило в состав коллегиального исполнительного органа на момент признания его банкротом и с момента признания его банкротом не прошло двух лет. 24. Исходя из деятельности предприятия, уполномоченным государственным органом и (или) комиссией могут устанавливаться дополнительные требования.
4-bob. Saralash jarayonida nomzodlarni baholash	**Глава 4. Оценка кандидатов в процессе отбора**
25. Komissiya nomzodlarning quyidagi hususiyatlarini baholaydi: kasbiy bilim-ko‘nikmalarini; ish tajribasini; manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini; nomzodning yoki “O’zbekgeofizika” AJ manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday holatlarni. 26. Baholash nomzodlar tomonidan taqdim etilgan, shuningdek qo‘shimcha manbalardan olingan ma’lumotlar hamda suhbat natijalari asosida amalga oshiriladi. 27. Nomzodlarni tanlashda horijiy korxonalar va xalqaro tashkilotlarda ish tajribasiga ega bo‘lgan nomzodlarga ustunlik beriladi.	25. Комиссия оценивает следующие характеристики кандидатов: профессиональные знания и навыки; опыт работы; наличие конфликта интересов; любые обстоятельства, которые могут негативно повлиять на интересы кандидата или АО «Узбекгеофизика». 26. Оценка основывается на информации, предоставленной кандидатами, полученной из дополнительных источников, а также на результатах собеседования. 27. Предпочтение будет отдаваться кандидатам с опытом работы иностранных предприятиях и в международных организациях.
5-bob. Yakunlovchi qoidalar	**Глава 5 . Заключительные положения**
28. Nomzodlar taqdim etgan ma’lumotlarining to‘liqligi va to‘g‘riligi uchun mas’ul hisoblanadi. 29. Mazkur nizom talablari bajarilishi ustidan nazorat kuzatuv	28. Кандидаты несут ответственность за полноту и точность предоставляемой ими информации. 29. Контроль за выполнением требований настоящего

kengashi tomonidan amalga oshiriladi. 30. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.	положения осуществляет наблюдательный совет. 30. Лица, виновные в нарушении требований настоящего положения, несут ответственность в соответствии с законом.

Приложение 1
К положению о порядке проведения конкурсов и отбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика»

СХЕМА
Проведение конкурса и отбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика»

Шаги	Предметы (Ответственный орган)	События	Сроки
Этап 1	Наблюдательный совет АО «Узбекгеофизика» уполномоченный государственный орган, Комиссия	**Формирование перечня** вакантных (вакантных) руководящих должностей или имеющихся вакантных (вакантных) руководящих должностей, образовавшихся в результате досрочного прекращения их полномочий, и утверждение кандидатур с квалификационными требованиями и должностными инструкциями **.**	**5 рабочих дней** с момента открытия членской вакансии **внутри**
Этап 2	Комиссия	Опубликовать список утвержденных управленческих вакансий через сайт и СМИ, либо **привлечь специализированные консалтинговые и хедхантинговые организации** , занимающиеся поиском кандидатов .	утверждения списка **в течение 5 рабочих дней**
Этап 3	Комиссия	**Поиск кандидатов** на вакантные руководящие должности по списку , поиск осуществляется **одним из** следующих способов: - размещение объявлений через сайт и средства массовой информации ; путем привлечения специализированных консалтинговых и «хедхантинговых» организаций, осуществляющих деятельность по поиску кандидатов .	Поиск кандидатов – **Не менее 15 дней и 30 в срок не более суток**
Шаг 4	Комиссия	Составление списка кандидатов, подавших документы в установленном порядке и в установленный срок, и оценка их участия на	По истечении **срока** подачи заявок , **в течение 5 рабочих**

Шаги	Предметы (Ответственный орган)	События	Сроки
		основании установленных критериев.	**дней**
Шаг 5	Комиссия	**Шорт-лист кандидатов с** наивысшим баллом не более 3 на каждую руководящую должность **составляют** _	После завершения оценки - в течение **3 рабочих дней**
Шаг 6	Комиссия	**Проведение собеседования** с n кандидатами , набравшими наибольшее количество баллов , при котором собеседование может проводиться в режиме онлайн-видеоконференции с использованием информационных технологий, по согласованию сторон .	После составления списка кандидатов, набравших наибольшее количество баллов (шорт-лист) , **в течение 3 рабочих дней**
Шаг 7	Комиссия	После собеседования с кандидатами из шорт-листа, набравшими наибольшее количество баллов, каждый вакантный на руководящую должность принятие решения о **выборе наиболее подходящего кандидата** и рекомендации наиболее подходящего кандидата на руководящую должность.	После составления шорт-листа кандидатов, набравших наибольшее количество баллов , **в течение 5 рабочих дней**
Шаг 8	АО «Узбекгеофизика» или общее собрание акционеров (учредителей).	**Организация принятия** решений органов управления об избрании (назначении) или переизбрании выдвинутого кандидата или кандидатов **.**	После подачи кандидата , **30 со дня без задержки**
Шаг 9	АО «Узбекгеофизика»	**Размещение списка кандидатов, избранных на** руководящую должность исполнительного органа , и информации о них на сайте компании и в средствах массовой информации .	После того, как решение принято , **2 в течение рабочего дня**

“O’zbekgeofizika” AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

“O’zbekgeofizika” AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar (Mas’ul organ)	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	“O’zbekgeofizika” AJ kuzatuv kengashi, vakolatli davlat organi, Komissiya	Vakolatlari muddatidan avval tugatilishi natijasida yuzaga keladigan bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari yoki mavjud bo‘sh (vakant) rahbarlik lavozimlari **ro‘yxatini shakllantirish** hamda nomzodlarga malaka talablarini va lavozim tavsifini belgilagan holda **tasdiqlash.**	Bo‘sh a’zolik o‘rinlari vujudga kelgan kundan boshlab, **5 ish kuni ichida**
2-bosqich	Komissiya	Tasdiqlangan bo‘sh rahbarlik lavozimlari ro‘yxatini veb-sayt va ommaviy axborot vositalari orqali **e’lonlar berish** yoki nomzodlarni izlab topish bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashgan konsalting va **“xedxanter” tashkilotlarini jalb etish**.	Ro‘yxat tasdiqlanganidan so‘ng, **5 ish kuni ichida**
3-bosqich	Komissiya	Ro‘yxat bo‘yicha bo‘sh rahbarlik lavozimlariga **nomzodlarni izlash**, bunda izlash quyidagi **usullardan birini qo‘llagan holda** amalga oshiriladi: - veb-sayt va ommaviy axborot vositalari orqali e’lonlar berish; - nomzodlarni izlab topish faoliyati bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashgan konsalting va “xedxanter” tashkilotlarini jalb etish orqali.	Nomzod izlash – **15 kundan kam bo‘lmagan va 30 kundan oshmagan muddatda**
4-bosqich	Komissiya	Belgilangan tartibda va muddatda o‘z hujjatlarini taqdim etgan nomzodlar ro‘yxatini	Nomzodlar **izlash** muddati tugagandan so‘ng, **5 ish kuni**

Bosqichlar	Subyektlar (Mas'ul organ)	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
		tuzish va ularning ishtirokida belgilangan mezonlar asosida **baholash**.	**ichida**
5-bosqich	Komissiya	Har bir rahbarlik lavozimi uchun 3 nafardan oshmaydigan eng yuqori ball to'plagan nomzodlar **ro'yxatini (short list) tuzish.**	Baholash yakunlanganidan so'ng – **3 ish kuni ichida**
6-bosqich	Komissiya	Eng yuqori ball to'plagan nomzodlar bilan **suhbat o'tkazish**, bunda suhbat tomonlar kelishuviga ko'ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda onlayn videokonferensiya rejimida o'tkazilishi ham mumkin.	Eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati (short list) tuzilganidan so'ng, **3 ish kuni ichida**
7-bosqich	Komissiya	Eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati (short list)dagi nomzodlar bilan suhbat o'tkazilgandan so'ng har bir bo'sh rahbarlik lavozimiga **eng munosib bitta nomzodni tanlash** to'g'risida qaror qabul qilish hamda eng munosib nomzodni rahbarlik lavozimiga tavsiya etish.	Eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati (short list) tuzilganidan so'ng, **5 ish kuni ichida**
8-bosqich	"O'zbekgeofizika" AJ kuzatuv kengashi yoki aksiyador (ta'sischi)lar umumiy yig'ilishi	Taqdim etilgan nomzod yoki nomzodlarni tarkibga saylash (tayinlash) yoki qayta tanlov o'tkazish bo'yicha boshqaruv organlarining qarorlarini **qabul qilinishini tashkil etish.**	Nomzod taqdim etilgandan so'ng, **30 kundan kechiktirmay**
9-bosqich	"O'zbekgeofizika" AJ	Ijroiya organining rahbarlik lavozimiga saylangan nomzodlar ro'yxatini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni korxona veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida **chop etish.**	Qaror qabul qilinganidan so'ng, **2 ish kuni ichida**

Приложение 2
К положению о порядке проведения отбора и выбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика»

ЛИСТ
результатов оценки кандидата на должность _____

ФИС кандидата.:_____

Нет	КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ	Максимальный балл по соответствующему критерию	Оценка кандидата
	I. ИНФОРМАЦИЯ		
1	Наличие диплома бакалавра в высших образовательных учреждениях Республика Узбекистан, если имеется диплом бакалавра высшего образовательного учреждения иностранного государства - присваиваются дополнительные 5 баллов (исходя из сферы деятельности предприятия комиссия по отбору кандидатов может определить область специализации).	5 (+5)	
2	Наличие диплома степени магистра, если имеется диплом магистра высшего образовательного учреждения иностранного государства - присваиваются дополнительные 4 балла (исходя из сферы деятельности предприятия комиссия по отбору кандидатов может определить область специализации).	4 (+4)	
3	Наличие ученого звания (кандидат наук, доктор философских наук, доктор наук) и ученой степени (доцент, старший научный сотрудник, профессор) если ученное звание присвоено в иностранном государстве - присваиваются дополнительные 4 балла (исходя из сферы деятельности предприятия комиссия по отбору кандидатов может определить область специализации)	4 (+4)	
4	Наличие диплома о дополнительном высшем образовании (втором, третьем).	3	
	II. ОПЫТ РАБОТЫ		
5	**Назначение на должность согласно соответствующим решениям Президента или Кабинета Министров Республики Узбекистан**		
	до 1 года	2	
	Более 1 года и до 3 лет	4	
	Более 3 лет и до 5 лет	6	
	Более 5 лет	8	
6	**Опыт работы на административно-управленческих должностях государственных организаций (за исключением периода работы на руководящей должности, указанной в разделе 5). Дополнительные 5 баллов присваиваются при наличии опыта работы в профильных министерствах и ведомствах.**		
	до 1 года	1 (+ 5)	
	Более 1 года и до 3 лет	2 (+ 5)	
	Более 3 лет и до 5 лет	4 (+ 5)	
	Более 5 лет	5 (+ 5)	

7	**Опыт работы в зарубежных странах на руководящих должностях (директор, заместитель директора, менеджер, супервайзер) или практический опыт решения вопросов в иностранной юрисдикции. В случае наличия положительных рекомендаций зарубежных организаций присваивается 2 дополнительных балла .**		
	до 1 года	2 (+ 2)	
	Более 1 года и до 3 лет	3 (+ 2)	
	Более 3 лет и до 5 лет	4 (+ 2)	
	Более 5 лет	5 (+ 2)	
8	**Опыт работы руководителем в профильной сфере, в которой объявляется конкурс (председатель правления/директор, заместитель председателя правления/заместитель директора или должности, приравненные к руководящей должности (главный инженер, главный механик, главный экономист, начальник отдела/цеха, и т. д.))**		
	до 1 года	6	
	Более 1 года и до 3 лет	9	
	Более 3 лет и до 5 лет	12	
	Более 5 лет	15	
9	**Опыт работы на руководящих должностях хозяйственных обществ (помимо стажа работы на руководящей должности, указанной в разделе 8, председатель правления/директор, заместитель председателя правления/заместитель директора, главный бухгалтер, начальник юридической службы, руководитель представительства или филиала).**		
	до 1 года	2	
	Более 1 года и до 3 лет	3	
	Более 3 лет и до 5 лет	4	
	Более 5 лет	5	
10	**Опыт работы в качестве члена наблюдательного совета хозяйственных обществ**		
	1 года свыше и до 3 лет	2	
	от 3 лет свыше и до 5 лет	3	
	Более 5 лет	4	
11	**Опыт работы не менее одного года в качестве сотрудника органа государственного контроля, судьи, депутата Законодательной палаты или Сената.**	5	
	II. ДРУГИЕ КРИТЕРИИ		
12	Дополнительные 2 балла даются за свободное владение одним из иностранных языков или всеми остальными (русским, английским, немецким, французским).	3(+1)	
13	Наличие действующего квалификационного сертификата корпоративного менеджера.	3	
14	Наличие действующих документов, подтверждающих соответствие квалификационным требованиям специалиста фондового рынка, аудитора, страховщика, оценщика, судебного управляющего, по 1 баллу за каждый.	1(+4)	
13	Дополнительные 2 балла даются при наличии одного из международных сертификатов и наличия одного или всех остальных (CFA, CPA, ACCA, ACA, CIMA, IMC, FRM).	3(+2)	
14	Компьютерная грамотность - MS Office, MS Excel - уверенное использование.	3	
15	Выполнение показателей бизнес-плана за предыдущий год кандидатом на руководящую должность (при выдвижением	5	

	действующего руководителя или заместителя руководителя предприятия)		

Общий максимальный балл: 100 баллов

Всего баллов, полученных кандидатом: _____ баллов.

Кандидат, настоящим подтверждаю, что:

что информация, введенная в соответствии с вышеуказанными критериями, верна и основана на подтверждающих документах;

полностью соответствует требованиям объявления о приеме на руководящую должность АО "Узбекгеофизика";

не имеет не погашенной судимости за преступления в сфере экономики или административного управления преступления, не являюсь лицом, лишенным права занимать должностные должности на основании решения суда, и не включён в открытый электронный реестр лиц, признанных виновными совершения коррупционных преступлений;

достоверность и правильность всей информации, представленной в настоящем заявлении, а также сведений, содержащихся в прилагаемых к нему документах и материалах.

Я осознаю, что в случае предоставления несуществующей, недостоверной и неправильной (заведомо ложной) информации я буду исключен из конкурса или из состава исполнительного органа (если это будет установлено после отбора).

"O'zbekgeofizika" AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ilova

_____ lavozimiga nomzodni baholash natijalari
VARAG'I

nomzodning F.I.Sh.:_____

№	BAHOLANADIGAN MEZONLAR	Tegishli mezon uchun maksimal ball	Nomzod balli
	I. MA'LUMOTI		
1	O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasining bakalavr diplomi mavjudligi (korxona faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib nomzodlarni saralash komissiyasi mutaxassislik yo'nalishi belgilashi mumkin), agar xorijda oliy ta'lim olganligi haqida bakalvar diplomi mavjud bo'lsa qo'shimcha 5 ball beriladi	5(+5)	
2	Magistr diplomining mavjudligi (korxona faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib nomzodlarni saralash komissiyasi mutaxassislik yo'nalishi belgilashi mumkin), agar xorijda oliy ta'lim olganligi haqida magistr diplomi mavjud bo'lsa qo'shimcha 4 ball beriladi	4(+4)	
3	Ilmiy unvon (Fan nomzodi, fan bo'yicha falsafa doktori, fan doktori) va ilmiy daraja (dotsent, katta ilmiy xodim, professor) mavjudligi (korxona faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib nomzodlarni saralash komissiyasi mutaxassislik yo'nalishi belgilashi mumkin), agar xorijda oliy ta'lim olganligi haqida magistr diplomi mavjud bo'lsa qo'shimcha 4 ball beriladi	4 (+4)	
4	Qo'shimcha oliy ma'lumot olganligi (ikkinchi, uchinchi) haqidagi diplom mavjudligi	3	
	II. ISH TAJRIBASI		
5	**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga ko'ra lavozimga tayinlanganligi**		
	1 yilgacha	2	
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	4	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	6	
	5 yildan ortiq	8	
6	**Davlat tashkilotlarining ma'muriy – boshqaruv lavozimlarida (5-bo'limda ko'rsatilagan rahbarlik lavozimida ishlash davridan tashqari) ish tajribasi. Tegishli vazirlik va idoralardagi ish tajribasi uchun qo'shimcha 5 ball beriladi.**		
	1 yilgacha	1(+5)	
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	2(+5)	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	4(+5)	
	5 yildan ortiq	5(+5)	
7	**Xorijiy mamlakatlarda rahbarlik lavozimlarida (direktor, direktor muovini, menejer, supervayzer) ish tajribasi yoki xorijiy yurisdiksiyadagi masalalarni hal qilishning amaliy tajribasi. Xorijiy korxonalar tomonidan berilgan ijobiy tavsiyanomalar bo'lsa, qo'shimcha 2 ball beriladi**.		
	1 yilgacha	2(+2)	
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	3(+2)	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	4(+2)	
	5 yildan ortiq	5(+2)	

8	**Tanlov e'lon qilinayotgan sohadagi rahbarlik tajribasi (Boshqaruv raisi/direktor, Boshqaruv raisi/direktor o'rinbosari yoki rahbarlik lavozimiga tenglashtirilgan lavozimlar (bosh muhandis, bosh mexanik, bosh iqtisodchi, bo'lim/sex boshlig'i va boshq.))**		
	1 yilgacha	6	
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	9	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	12	
	5 yildan ortiq	15	
9	**Xo'jalik jamiyatlarining rahbarlik lavozimlarida ishlash tajribasi (8-bo'limda ko'rsatilagan rahbarlik lavozimida ishlash davridan tashqari, Boshqaruv raisi/direktor, Boshqaruv raisi/direktor o'rinbosari, bosh hisobchi, tashkilotning yuridik xizmati rahbari, vakolatxona yoki filial rahbari).**		
	1 yilgacha	2	
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	3	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	4	
	5 yildan ortiq	5	
10	**Xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashi a'zosi sifatida ish tajribasi**		
	1 yildan ortiq va 3 yilgacha	2	
	3 yildan ortiq va 5 yilgacha	3	
	5 yildan ortiq	4	
11	**Davlat nazorat organi xodimi, sudya, Qonunchilik palatasi yoki Senat deputati sifatida bir yildan kam bo'lmagan ish tajribasi.**	5	
	II. BOSHQA MEZONLAR		
12	Xorijiy tillardan (rus, ingliz, nemis, fransuz tillari) birinini mukammal bilishi, qolganlaridan birini yoki hammasini bilishi qo'shimcha 2 ball beriladi	3(+1)	
13	Amal qilish muddatiga ega korporativ boshqaruvchi malaka attestatining mavjudligi	3	
14	Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi, auditor, sug'urtalovchi, baholovchi, sud boshqaruvchisi malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi amal qilish muddatiga ega hujjatlarining mavjudligi, har biriga 1 balldan beriladi	1(+4)	
13	Xalqaro sertifikatlardan(CFA, CPA, ACCA, ACA, CIMA, IMC, FRM) birining mavjudligi, qolganlaridan biri yoki hammasi mavjud bo'lsa qo'shimcha 2 ball beriladi	3(+2)	
14	Kompyuter bilimdonlik - MS Office, MS Excel – ishonchli foydalanish	3	
15	Rahbarlik lavozimiga nomzodning oldingi yil uchun biznes reja ko'rsatkichlarini bajarishi (korxonaning amaldagi rahbari yoki rahbar muovining o'z nomzodini qo'ygan holda)	5	

Jami maksimal ballar yig'indisi: 100 ball

Nomzod to'plagan ballar yig'indisi: _____ ball.

Ushbu bilan nomzod sifatida quyidagilarni tasdiqlayman:

yuqoridagi me'zonlar bo'yicha kiritilgan ma'lumotlarning men tomonimdan to'g'ri va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan kiritilganligini;

"O'zbekgeofizika" AJ Bosh direktori lavozimiga berilgan e'lon talablariga to'liq mos kelishini;

iqtisodiy jinoyatlar yoki boshqaruv tartibiga oid jinoyatlar uchun tugallanmagan sudlanganligim mavjud emasligini hamda sud qarorlariga asosan mansab lavozimlarini egallashi cheklangan shaxs emasligimni, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestriga kiritilmaganligimni;

ushbu arizada keltirilgan barcha ma'lumotlarning, shuningdek unga ilova qilingan hujjatlar va materiallarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiyligi, ishonchliligi va to'g'riligini.

Men tomonimdan haqiqiy bo'lmagan, ishonchsiz va noto'g'ri (yolg'on) ma'lumotlar berilgan taqdirda, tanlovdan yoki ijroiya organi tarkibidan (agar tarkibga saylangandan so'ng aniqlansa) chetlatilishim to'g'risida xabardorman.

Приложение 3

К положению о порядке проведения конкурсов и отбора кандидатов на руководящие должности исполнительного органа АО «Узбекгеофизика»

Показатели оценки профессиональных знаний и навыков кандидата в процессе прохождения собеседования при избрании на руководящие должности

№ т/р	*Индикаторы*	*Описание*
1	экзамен	**Требования:** • Наличие успешного опыта руководства крупными предприятиями (в должности руководителя, заместителя руководителя, начальника отдела); • Иметь безупречную репутацию и положительные достижения в деловой и/или профессиональной среде ; • Опыт разработки и продвижения бизнес-стратегии/политики устойчивого развития/инвестиционных проектов на предприятии, которым он управляет или управляет ; • Опыт разработки и внедрения глубоких изменений, современной корпоративной системы и культуры на предприятии, которым он управляет или управляет ; • Обучение персонала и/или внедрение новых инструментов управления персоналом ; • Опыт работы в советах директоров и/или наблюдательных советах крупных предприятий ; • участия в крупных инвестиционных проектах /управления/подготовки компании к привлечению частных или государственных средств ; • Знание ситуации с точки зрения международно-правовых требований при реализации крупных проектов с привлечением иностранных партнеров ; • Умение оценивать целесообразность постановки стратегических целей, оценивать и анализировать наличие необходимых финансовых и человеческих ресурсов; • Успешный опыт влияния на разработку и внедрение международных стандартов, в том числе ESG, гендерного равенства, инклюзивности и соответствия устойчивому развитию ; • Опыт работы в государственных компаниях будет дополнительным преимуществом .
2	Личные качества	• Способность овладеть навыками во всех аспектах управления ; • Стратегическое мышление на высоком уровне ; • лидерских качеств и опыта ; • Опыт реализации изменений посредством позитивной мотивации и убеждения ;
3	Оценка дополнительных знаний и навыков кандидата	• Уровень владения языком; • Навыки работы с компьютером, интернетом и ИТ • кандидата вводная способность и мобильность; • Другие навыки кандидата.

“O’zbekgeofizika” AJ ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to‘g‘risidagi nizomga

3-ilova

Rahbarlik lavozimlariga saylash uchun suhbat jarayonida nomzodning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash ko‘rsatkichlari

№ t/r	*Ko‘rsatkichlar*	*Tavsif*
1	Ekspertiza	**Talablar:** • Yirik korxonalarni boshqarish (rahbar, rahbar o‘rinbosari, bo‘linma boshlig‘i sifatida) bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribasi mavjudligi; • Ishbilarmonlik va/yoki professional muhitda benuqson obro‘ va ijobiy yutuqlarga ega bo‘lganligi; • O‘zi faoliyat yuritgan yoki boshqargan korxona/larda biznes strategiyasi/barqaror rivojlanish/investitsion loyihalar siyosatini ishlab chiqish va targ‘ib qilish tajribasi; • O‘zi faoliyat yuritgan yoki boshqargan korxona/larda chuqur o‘zgarishlarni, zamonaviy korporativ tizimini va madaniyatini ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasi; • Kadrlar tayyorlash va/yoki yangi HR boshqaruv vositalarini joriy etish; • Yirik korxonalardagi direktorlar kengashi va/yoki kuzatuv kengashlarida ish tajribasi; • Yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etish/boshqarish/kompaniyani xususiy yoki davlat mablag‘larini jalb qilishga tayyorlash tajribasi; • Xorijiy hamkorlar ishtirokidagi yirik loyihalarni amalga oshirishda xalqaro normativ-huquqiy talablar nuqtayi nazaridan vaziyatni bilishi; • Strategik maqsadlarni belgilashning maqsadga muvofiqligini baholash, zarur moliyaviy va inson resurslari mavjudligini baholash va tahlil qilish qobiliyati; • Xalqaro standartlarni ishlab chiqish va joriy etishga ta’sir qilish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajriba, shu jumladan ESG, gender imkoniyatlar tengligi, inklyuzivlik va barqaror rivojlanishga muvofiqlik nuqtayi nazaridan; • Davlat kompaniyalarida ish tajribasi qo‘shimcha afzallik bo‘ladi.
2	Shaxsiy sifatlari	• Menejmentning barcha jabhalarida yetakchilikni o‘zlashtirish qobiliyati; • Yuqori darajadagi strategik fikrlash; • Yetakchilik fazilatlari va tajribasining mavjudligi; • Ijobiy motivatsiya va ishontirish orqali o‘zgarishlarni amalga oshirish tajribasi;
3	Nomzodning qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarini baholash	• Til bilishi darajasi; • Kompyuter, internet va IT soxasidagi ko‘nikmalari • Nomzodning muqaddima qilish qobiliyati va harakatchanligi; • Nomzodning boshqa ko‘nikmalari.